

5. Дженкинс Г. Конвергентная культура. — М.: Логос, 2019.
6. Paul C. Digital Art. — Thames & Hudson, 2024.
7. Bourriaud N. Postproduction: Culture as Screenplay. — New York, 2022.

KUTUBXONALARNING KELIB CHIQISHI VA ZAMONAVIY KUTUBXONACHINING O'RNI

Tulanboyeva Mahliyo G'anisher qizi

Zafarobod tuman axborot kutubxona markazi, Axborot – bibliografiya xizmat rahbari

Annotatsiya: Ushbu maqolada kutubxonalar tarixiy shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy kutubxonachilik kasbining jamiyatdagi o'rni tahlil qilinadi. Dastlabki kutubxonalar faqatgina hukmdorlar va zodagonlar uchun xizmat qilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan jamoat kutubxonalari aholi uchun bilim manbai sifatida shakllangan. Kutubxonachilik sohasi esa avvalgi "kitob yig'uvchilar"dan boshlab, bugungi kunda ko'p qirrali, malakali va har tomonlama bilimga ega mutaxassislik sifatida qaralmoqda. Maqolada kutubxonachining axborot vositachisi, ma'naviy tarbiyachi, psixolog va texnik mutaxassis sifatidagi zamonaviy roli yoritilgan. Shuningdek, muallif kasbga oid zarur bilim va ko'nikmalarni – notiqlik, psixologiya, dizayn, informatika, tibbiyot va boshqa fanlar bilan bog'lab tahlil qiladi. Yakunda kutubxona va kutubxonachilik sohasi nufuzi oshishi uchun amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: kutubxona, Kutubxonachi, kutubxonachilik kasbi, axborot vositachisi, ma'naviyat targ'ibotchisi, psixologik ko'makchi, jamoat kutubxonasi, kitobxonlik, zamonaviy kutubxona, madaniyat, resurslar, texnologiya, rivojlanish, targ'ibot, oliy ta'lim, mutaxassis, kitobxon psixologiyasi, o'qish madaniyati, buktreyler, ko'rgazma, informatika, dizayn sohasi, xorijiy til, sifatli ta'lim.

Kutubxona – bu g'oyalar maskani, unga hammani taklif qilish mumkin.

A. Herzen

Libraries are a haven for ideas, where everyone is welcome.

A. Herzen

ПРОИСХОЖДЕНИЕ БИБЛИОТЕК И РОЛЬ СОВРЕМЕННОГО БИБЛИОТЕКАРЯ

Туланбоева Махлиё Ганишер кизи

Зафарабадский районный информационно-библиотечный центр, руководитель
информационно-библиографической службы

Аннотация: В данной статье анализируются историческое формирование библиотек, этапы их развития и роль современной библиотечной профессии в обществе. Если первые библиотеки служили исключительно правителям и знати, то со временем общественные библиотеки стали источником знаний для населения. Библиотечное дело, начиная от ранних «собирателей книг», сегодня рассматривается как многопрофильная, квалифицированная и всесторонне компетентная профессиональная сфера. В статье раскрыта современная роль библиотекаря как посредника информации, духовного наставника, психолога и технического специалиста. Также автор анализирует необходимые для профессии знания и навыки — ораторское искусство, психологию, дизайн, информатику, медицину и другие смежные области. В заключение представлены практические предложения по повышению престижа библиотек и библиотечного дела.

Ключевые слова: библиотека, библиотекарь, библиотечная профессия, информационный посредник, пропагандист духовности, психологическая поддержка, публичная библиотека, чтение, современная библиотека, культура, ресурсы, технологии, развитие, просвещение, высшее образование, специалист, психология читателя, культура чтения, буктрейлер, выставка, информатика, дизайн, иностранный язык, качественное образование.

THE ORIGIN OF LIBRARIES AND THE ROLE OF THE MODERN LIBRARIAN

Mahliyo G'anisher qizi Tulanboyeva

Head of the Information and Bibliography Service at the Zafarobod District Information and
Library Center

Annotation: This article explores the historical development of libraries, their evolution, and the role of modern librarianship in society. Initially, libraries served only rulers and elites, but over time, public libraries emerged as a source of knowledge for the masses. The field of librarianship has evolved from mere "book collectors" to a multifaceted, skilled profession requiring diverse expertise. The article highlights the modern librarian's roles as an information intermediary, a promoter of cultural values, a psychological supporter, and a technical specialist. It also analyzes the essential skills and knowledge needed, including communication, psychology, design, IT, and even medical basics. Finally, practical suggestions are offered to enhance the prestige and impact of libraries and librarianship.

Keywords: library, Librarian, Librarianship, Information Intermediary, Cultural Advocate, Psychological Support, Public Library, Reading Culture, Modern Library, Culture, Resources, Technology, Development, Advocacy, Higher Education, Specialist, Reader Psychology, Reading Culture, Book Trailer, Exhibition, IT, Design, Foreign Language, Quality Education.

Kutubxonalar paydo bo'lganidan buyon necha asrlar o'tgan bo'lsa ham aynan mana shu soha hali hamon yashab kelmoqda, rivojlanmoqda. Insonlar kutubxonalarni qanday baholashadi, kutubxonalar insonlar uchun kerakmi, kutubxonalar uchun kutubxona xodimlari kerakmi yoki insonlarga kutubxonachi xodimlar kerakmi? Bugun biz shu mavzuda gaplashamiz.

Kutubxonalar qanday paydo bo'lgan?

Dastlabki kutubxonalar paydo bo'lishiga qadimgi davrlarda ma'lum bir vositaga asoslangan bilim olish shakllari qimmat bo'lganligi sabab bo'lgan. O'sha davrlarda bilimning o'zi aholining hamma qatlami uchun bo'lmagan. Ya'ni oldinlari faqat yuqori tabaqa odamlari, davlat hukmdorlari, oliy mansab kishilar bilim olishi mumkin edi. Aynan shu maqsadda ochilgan kutubxonalar esa ularga yordamchi vosita sanalgan. O'sha davrlardagi axborot tashuvchilar esa – papirus, pergament, loydan yasalgan bitiklar juda qimmatbaho bo'lgan. Aynan buning sababi esa ularni ishlab chiqarish jarayoni yoki materiallarning yuqori narxi odamlarning bilim olishga bo'lgan xohishini so'ndirgan. Keyinchalik esa jamoat kutubxonalari paydo bo'la boshladi. Jamoat kutubxonalari ko'paygani sari aholining ilm olishga bo'lgan ishtiyoqi kuchayib bordi.

Odamlar sekin – asta kitob o'qish kishiga ko'p foyda keltirishi va ma'lumot to'plashning eng samarali usuli ekanligini tushunib o'zlari uchun kutubxonalar barpo etishni boshlaganlar. O'rta asrlarning oxirida katta cherkovlar qurilgan paytda odamlar ular qoshida kichik kutubxonalar tashkil qilishni boshlagan. Ulardan ilhomlangan Universitetlar ham kitob yig'ishni boshlashgan. Parij, Geydelberg va Florensiya universitetlari "zanjirband qilingan" kitob to'plamlari bilan mashhur bo'lgan. Kitob tayyorlash shunchalik qiyin bo'lganki, noxush holatlarning oldini olish uchun kitoblar devorlarga katta zanjirlar bilan mixlab qo'yilgan.

Ya'ni bu degani insonlar kitoblarga qiziqqani sari kitoblarni to'plash ham avj olgan, umuman jaydari tilda aytganda kutubxonachilik sohasi rivojlanib borgan. O'sha davrlarda kutubxonachilar "Kitob yig'uvchi" deb atalgan. Keyinchalik bu soha ancha rivojlanib, har tomonlama takomillashib barqaror o'rniga ega bo'ldi. Bu soha rivojlangani sari tub aholi orasida ziyolilar soni ham ortgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, aniq ma'lumotlarga bir to'xtalsak.

Tarix zarvaraqlarini ochadigan bo'lsak, Rim imperatori bo'lgan Yuliy Sezar tarixda unchalik ham yaxshi nom qoldirmagan. Lekin biz bilmagan ma'lumotlardan biri bu Sezar tomonidan aholi uchun jamoat kutubxonalarining yaratilishidir. Jamoat kutubxonalari qurishni birinchi bo'lib qadimgi rimliklar o'ylab topishgan. Yuliy Sezar esa jamoat kutubxonalarining butun tizimini yaratishni rejalashtirgan va vafotidan keyin bunday kutubxonalar katta shuhrat qozongan. Rimning boy aholisi kambag'allar uchun maxsus kutubxonalar tashkil etishgan, shuningdek o'zlari uchun ulkan kitoblar kolleksiyasini to'plashgan. IV asrga kelib Rimda 28 ta jamoat kutubxonasi mavjud bo'lgan. Bizning davrimiz boshlarida kutubxonalar cherkov va monastirlarning ajralmas qismiga aylangan. Rohiblar kitoblarni o'qib, nusxa olganlar: ko'plab kutubxonalarning faoliyati ularning sa'y-harakatlari evaziga ta'minlangan. – deb yozadi rimlik kitobxonlar.

1. 1400-yilga kelib Oksfordda joylashgan universitet kutubxonada kitoblarni to'plashni boshlagan. Hozirda uning Bodleyn kutubxonasi butun dunyo universitet kutubxonalari orasida eng yirigi hisoblanadi. Afsuslanarlisi, biz bugungi kunda bilgan jamoat kutubxonalari atigi 100 yildan beri mavjud. Bundan oldingi davrlar kutubxonalari haqida esa tub aholi deyarli ma'lumotga ega emas.

2. XIX asrning boshlarida ingliz siyosatchilari xalqni kutubxonalarni qo'llab-quvvatlashga da'vat etgan. Bu esa yaxshi natija olib kelgan. Kitoblar bilan birga kitobxonlar sonining ortishi

kutubxonalarning ko'payishi uchun katta vosita bo'lgan. 1850-yilda ingliz parlamenti kutubxonalarni tashkil qilishga ruxsat bergan. Bu jarayon esa xususiy kutubxonalarning ochilishiga yo'l bergan.

Kutubxonalarni tashkil qilish davomida odamlarga yordamchi bo'ladigan, ishini yengil qiladigan, bu sohani tushunadigan odam kerakligini ular kutubxonaga borib izlagan kitobini qidirganda, va to'g'ri ma'lumot olishni xohlashganda va eng asosiysi kitoblarni uzoq vaqt saqlash o'sha davrlarda muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli aynan mana shu soha bo'yicha o'z ishini ustasi bo'lgan odamlar jalb etilgan. So'ngra bu kitob yig'uvchi, to'plovchi va saqlovchilarni o'zida mujassamlaydigan ustalar (ya'ni xodimlar)ni tayyorlashgan. Bu esa o'z – o'zidan kutubxonachilik kasbining shakllanishiga olib kelgan.

Kutubxonachilik kasbi

Kutubxonachi - bu kasb, yuqorida aytib o'tilganidek, zamonaviy dunyoda unchalik keng tarqalgan bo'lmasada, lekin asrlar davomida shakllanib kelayotgan soha desak bo'ladi. Bundan tashqari, bu kasb IT texnologiyalari bilan solishtirganda unchalik talab qilinmaydi. Lekin bu soha juda kerakli hamda aholi qatlami orasida o'z nufuziga ega kasb. Xo'sh, kutubxonachi kim?

Har bir inson hayotida kamida bir marta bunday ishchilarga duch kelgan. Kutubxonachi - kutubxonada ishlaydigan xodim. Ya'ni, o'ziga xos "kitoblar saqlovchisi". Bundan tashqari, bunday xodim adabiyotni yaxshi biladi va tezda to'g'ri topishda yordam berishga qodir va u fuqarolarga ma'lumot topishda hamda kitobxonalarni tezda tushunadigan inson bo'lishi lozim. Aslini olganda, kasbda juda qiyin narsa yo'qdek tuyuladi. Faqat kutubxonada ishlash juda qiyin ish. Haqiqiy va muvaffaqiyatli kutubxonachi ko'plab fazilatlar va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Qanday qilib bunday xodimga aylanish mumkin? Buning uchun kutubxonachi juda ko'p mashaqqatlarni yengib o'tishi, kitobxonlar bilan muloqot o'rnatishi, til va adabiyot, tarix, informatika, psixologiya fanlarini chuqur egallashi kerak.

Xo'sh, har qanday kasb kabi bizda ham ma'lum bilim talab qilinadimi? Ha albatta. Yo'nalishning o'zi zamonaviy yoshlar orasida unchalik mashhur emasligini hisobga olsak, kutubxonachi sifatida keyingi ishga joylashish uchun mutaxassislik tanlash unchalik katta emas. Ya'ni bu sohada ishlagan odamni boshqa sohaga taklif qilish o'ylantiradigan holdir. Odatda faqat gumanitar fanlarga ustunlik beriladi. Xususan, "Kutubxonachi", "Hujjatlar", "Adabiyot", Ba'zan biz "Madaniyatshunoslik", "Filologiya" ni ham uchratishimiz mumkin. Kamdan-kam hollarda, lekin hali ham "Menejment" kabi mutaxassislik mavjud. Aslida, yaxshi kutubxonachi faqat oliy ma'lumot bilan cheklanmaydi, Buning uchun u texnik maktabda ham o'qish mumkin. Aynan bir xil yo'nalishlarda. O'rtacha hisobda kutubxonachilar ham boshqalar kabi ko'proq o'qishiga to'g'ri keladi, ya'ni – 4 yoki 5 yil. Qaysi joy bizning ishimizga aylanishi muhim emas - markaziy kutubxona, bolalar yoki boshqa kutubxonalar. Ammo haqiqat shuki, barcha kutubxonachi birdek bilim olishi, o'rganishi, tajriba almashishi kerak. Ba'zi hollarda siz "ishsiz" qolishingiz mumkin, Ana shunda tushunib yetasiz keyingi pog'ona bu bilimning davomiyligi ya'ni universitet. Keyingi bosqich diplomning borligi, sizning shaxsiy bilimingiz va fazilatlaringiz bilan qoplanishi kerak. Ish beruvchiga haqiqiy kutubxonachi ekanligingizni isbotlash unchalik ham oson emas. Ya'ni soha nomini eshitsangiz oson va soddahdek tuyulishi mumkin. Lekin aslida kutubxonachilik sohasi kasb mahorati, notiqlik san'ati psixologiya sohalarini birlamchi; kimyo-biologiya, fizika, matematika, tibbiyot, dizayn va IT sohalarini ikkilamchi bilishi lozim. Nega deysizmi? Albatta bu sohalarining barchasi kasbimizga bog'liq tushunchalardir. Birlamchi masala:

1. Kasb mahorati – ya'ni uddaburon, tezkorlik, bilim darajasi, kasbiy tayyorgarlik bular boshlang'ich yechim.

2. Notiqlik san'atini o'zida mujassamlashtirgan xodim har doim har sohada eng ilg'or va vaziyatdan chiqib ketishning yagona usuli. Ya'ni hamma narsani bilsangiz-u hech nima deymasangiz bu sizga faqat salbiy natija olib keladi. Shuning uchun doimo har gapni o'n marta o'ylab qirq marta qirqib, sakson marta saralab, eng to'g'risini taxlab so'zlang bu ijobiy natijaga olib keladi.

3. Eng qiyin masala bu kitobxon psixikasi. Xo'sh, ularga muomala qilishdan avval ularni har birini tez soniyalarda o'rgana olmaymizku. To'g'rimi? Ayni mana shu damda bizga har doim odamlarni tezda bilishga yordam beradigan psixolog chap miya yordamga keladi. Kitobxonlar faqatgina yosh toifa bilan emas psixologik jihatdan ham toifalanadi. Xususan, Sangvinik, melanxolik, xolerik, flegmatik temperamentlar insonlarning umumiy qaysi sohaga qiziqishi yoki xarakterlanishi bilan turlanadi. Va e'tiborli kutubxonachi mana shu bilimi bilan vaziyatni yengillashtiradi. Bu hech mubolag'asiz asosiy masalalardir.

4. Ana endi ikkilamchi masalani muhokama qilsak, Kutubxonachi faqat kitobxonalarni ehtiyojini qondiradigan shaxs bo'libgina qolmay u yangilik yaratadigan, resurslar (kitob, noyob nashrlar, fotogalereya, elektron, audio hujjatlar)ni toza va yangi holda saqlaydigan kitob saqlovchisi hamdir.

Shuning uchun ham, kutubxona xodimi albatta bu sohalarini bilib qo'ysa, o'ziga va boshqalarga yaxshi bo'ladi. Ikkilamchi bilish lozim bo'lgan sohalar:

1. Kimyo – biologiya va fizika sohasi kutubxona sharoiti, hujjatlar saqlanishi, nisbiy namlik hamda yorug'lik darajasi hamda eng qo'rqinchli jarayon resurslarni har xil muhit va turli zararkunandalardan himoya qilish uchun kerak bo'ladi. Bu albatta kutubxonachining yordamchi quroli hisoblanadi.

2. Matematika oliy fan bo'lib, u qaysi sohada ishlamaylik ishchining o'ng qo'l vositasiga aylanadi. Hisob – kitob ham kutubxonachilar uchun kitoblarni jamlash, ro'yhatdan o'tkazish taqsimlash, yaroqsiz kitoblarni fondan chiqarish jarayonida aniq ma'lumot sifatida qo'llaniladi.

3. Tibbiyot sohasi inson sog'ligining kafolati. U eng kerakli soha bo'lib, kutubxonachilik kasbini tanlagan odamlar biladi bu sohaning fidoyi kasb egasi bo'lishga arzigulik hol ekanligini. Chunki kutubxonaga kirgan odam u yerdan chiqayotganda chang, bakteriyaga to'la xonaning 0.5 % va kitobning allergiya chaqiruvchi virusini 0.2% miqdorda olib ketishini bilmaydi. Kutubxonachi esa har kuni ishga kelganda shunday muhitdan shunday havodan har doim nafas oladi. Inson sog'ligi eng qimmat ne'mat. Lekin xodim har tomonlama himoya vositalarini ishlatgan bo'lsa, havo va yorug'lik darajasi, kitoblar tozaligi hamda xavfsizlik tizimiga amal qilsa to'g'ri ovqatlanish rejimi (ya'ni ovqatlanishdan oldin 1 piyola kefir barcha viruslarni yo'qotadi)da bo'lsa hech qanday xavf tug'dirmaydi. Albatta, bunday sharoitlar ham bosichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda.

4. Dizayn va IT sohasi – zamonaviy raqamlashtirish texnologiyasi davrida eng nufuzli va yangi innovatsiyalarni targ'ib etadigan soha bo'lib, bu bo'yicha har kuni yangi loyihalar yangi startaplar ko'rsatayotgan xodimlarning oshig'i olchi ekanligidan dalolat. Kutubxona binosi kitoblarni joylashtirish kitobxonlarga qulaylik yaratish, kitoblarga zarar bermasdan ishlov berish, Elektron kitoblar va axborot texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan jarayonlarning barchasi dizayn sohasiga kiradi. Ya'ni bu reklama qilish degani. Mahsulotingiz yangi har tomonlama mukammal bo'lsayu, uni to'g'ri joylashtira olmasangiz, bu bo'yicha kitobxonlarni qiziqtira olmasangiz. Qanchalik mahsulotingiz zo'r bo'lmasin, kitobxon uni chetlab o'tadi. Rassomlar o'zlari chizgan rasmini targ'ibot qiladilar, biznesmenlar ishlab chiqqan loyihalarini targ'ibot qilishadi. Va ular bu sohada mukammal bilimga ega bo'lishadi. Lekin kutubxona sohasi vakillari alohida bu sohada o'qimagan bo'lsada mana shu soha bo'yicha ishlashadi. Ya'ni bir muallif hayoti va ijodi haqida ma'lumot yig'adi, uning bestseller kitobini buktreylerini ishlab chiqadi. Kitobxonlar talabini o'rgangan holda eng zo'r kitoblar ko'rgazmasi tashkil qiladi. Eng asosiysi kitobxonlar ehtiyojiga mos kitoblarni yaxshilab o'rganib kitob targ'ibotlari o'tkazadi.

Kutubxonachilar bilim olishi lozimmi?

Albatta, boshqa sohalar qatori kutubxona mutaxassislari bilim olishning har bir bosqichini bosib o'tishi lozim va bugungi kunda global sohaga aylangan xorijiy tilni o'zlashtirishi kerak. Har bir sohaning o'z faoliyati va kelajakdagi ilg'or natijasi bo'lgani kabi kutubxonachilik sohasining ham o'ziga yarasha kasb faoliyatiga oid mashaqqatlari, qiyinchiliklari, eng muhimi tajribalari va yutuqlari ya'ni yuqori natija ko'rsatgan fidoyilari bo'lgan. Bunga esa osonlikcha erishilmagan.

Eng avvalo kutubxona haqida to'xtalsak, Manbalarga ko'ra kutubxonalar turli tilda talqin etiladi. Kutubxona aslida (arabcha - kutub - "kitoblar", forsha - xona - "uy") axborot yig'iladigan joydir. Bunda axborot kitob, gazeta, jurnal, video va audio tasma, optik disk va h.k shaklda bo'lishi mumkin. Kutubxonalar tashkilot (jamoat) yoki jismoniy shaxs (shaxsiy kutubxona) tomonidan tashkil etilishi mumkin. Kutubxona — bosma va ayrim qo'lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta'minlovchi madaniy-ma'rifiy va ilmiy muassasa hisoblanadi.

Kutubxona xodimi muntazam ravishda bosma asarlar to'plash, saqlash, targ'ib qilish va kitobxonlarga yetkazish, shuningdek, axborot-bibliografiya ishlari bilan shug'ullanadi, ommaning madaniy saviyasini oshirishda faollik ko'rsatadi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish kutubxonachining asosiy faoliyati bo'lib, qolgan barcha faoliyatlar (kitob fondini butlash va uni tashkil etish, fond mazmunini yoritish, uni kitobxonlarga yetkazish kabilar) asosiy faoliyat uchun xizmat qiladi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning asosiy maqsadi ularni axborot va adabiyotga bo'lgan talablarini imkon boricha to'liq qondirish va adabiyot tanlashlariga yordam berishdan iborat. Kutubxona o'z turiga ko'ra kitobxonlarni tabaqalarga bo'lib, alohida kitobxonlar guruhlariga ajratgan holda xizmat ko'rsatishni tashkil qiladi. Adabiyotlar targ'ibotining barcha shakl va usullari kitobxonlar talabini imkon qadar to'liq va tezkorlik bilan qondirishga qaratiladi. Va xorijiy tillarni bilish strukturasi har bir kutubxona mutaxassisini yanayam mukammal darajada ishlashi uchun faqatgina foyda ekanligi haqiqat. Ya'ni kitobxonlar kutubxonachi oldiga turli xil til sohasiga oid ilmiy yoki badiiy adabiyot so'rab keladi, bundan tashqari O'zbekiston turli millatlar jamlangan diyor desak mubolag'a bo'lmaydi. Bizning tumanda past

ko'rsatkichda bo'lsada rus, qozoq, tojik, qirg'iz millatli aholi uchun ham xizmat ko'rsatiladi. Tajriba almashish jarayonlari malaka o'quv kurslari uchun ham albatta xorijiy tilni bilish lozim.

Ko'rib turganingizdek, kutubxonachi – mutaxassislar orasida unchalik mashhur bo'lmagan kasb. Bu adabiyotdan alohida mas'uliyat, bilim va malaka talab qiladi. Kutubxonada ijodkorlik va kitobni chinakam sevuvchigina doimiy ishlay oladi. Aksincha, bu hatto kasb emas, deydiganlar ham bor! Ana endi o'ylab ko'ring, kutubxonaning odamlar orasida yoki barcha tashkilotlar qatorida emas pastda turishiga biz o'zimiz sababchi bo'lib qolmayapmizmi? Nega deyishingiz mumkin? Birinchidan bolalar yoshligidan biz ularga hayoti davomida kutubxonaning o'rinli ahamiyati borligini aytishimiz lozim, lekin afsus biz unday qilmaymiz. Katta yoshlilar va davlat va nodavlat tashkilotlari orasida barcha kutubxonalarning alohida o'rni borligini doimiy targ'ib qilishimiz lozim. Ya'nikim bizni kasb va tashkilotimizni pisand qilmaydigan mansab yo'rg'alari bundan yetarlicha to'g'ri xulosa chiqargan bo'lar edi.

Men yuqorida yozgan barcha fikrlarim xulosasi sifatida shunday taklif bermoqchiman.

1. Birinchi navbatda, M.M.T.Vazirligi bilan hamkorlikda har bir o'quvchi oladigan natijasining yuzdan o'n foizini kutubxona bilimi bilan jipslashtirsa. Ya'ni o'quvchi har chorakda hamma fandan nazorat ishi topshirganda kutubxonachi tomonidan barcha sinf o'quvchilari uchun har chorakka 3tadan kitob qo'yilishi hamda o'quvchi tomonidan ular o'qilishi va mana shu kitoblar orqali test yoki viktorina orqali bilimi baholanishi va mana shu baho o'quvchi bahosiga qo'shilib, natijaning mustahkamlanishi. Bu albatta kutubxona uchun va o'quvchi uchun yaxshi yutuqdir.

2. Ikkinchi navbatda, Oliy ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda barcha abituriyentlar uchun kirish testidagi kirish bali natijasiga kutubxonadan foydalangan bilimlarini jipslashtirish. Bunda har bir o'quvchi o'qigan kitoblaridan 20 tasini yozib bera olishi va yanayam aniqlash uchun asarda qatnashgan qahramonlardan 10 tasini sanab bera olishi va bu bilan kirish baliga qo'shimcha 5 yoki 10 ball qo'shilishi. Bunda har bir abituriyent kitob o'qish institutga kirishiga yaxshi yordam bo'lishini his qiladi.

3. Uchinchi navbatda, eng asosiy masala, va biz bu global muammoni chetlab o'tolmaymiz. Har bir davlat tashkilotiga rahbar yoki mutaxassis bo'lib ishga kiradigan odam davlat suhbatlari bilan birga kutubxonaga a'zoligi va yil davomida kamida 10 ta kitob o'qiganligini asoslaydigan ma'lumotnoma bilan qabul qilinsa, albatta men o'ylayman sohaga ham rivoj bo'ladi, kutubxonalar ham yuksaladi.

Bir olim aytgan ekan, yashamoqchimisiz – kitob o'qing. Zero, kitob o'qimagan inson, o'lik insonlar kabidir, - deb. Men nima uchun davlat tashkilotlariga qabul qilinadigan odam kutubxonani bilishi va kitob o'qigan bo'lishi kerak dedim. Chunki hozirgi kunda bilim bizni hayotimizni va kelajagimizni belgilayotgan aynan kutubxona va kitoblar ekanligini anglashsin degan maqsadda qo'shdim. Umuman kitob o'qimagan odam - birinchi navbatta tafakkur qila olmaydi, to'g'ri fikrli keng dunyoqarashli bo'la olmaydi. Eski sarqitlarga aylangan qoidalarini o'ziga oladida nafaqat o'zini balki barcha xodimlarni qiynaydi. Keyin ko'ryabsizki, bu sohaning rivojlanishi bo'lmaydi. Davlat sifatiga ham yomon ta'sir ko'rsatadi. Bilimli, kitobni sevuvchi mutaxassis esa doimo kamtar bo'ladi atrofdaogilar bilan xalqchil munosabatda bo'ladi. Har doim yangi g'oyalari orqali kasbini fidoyisiga aylanadi, soha takomillashishiga alohida ahamiyat qaratadi, eng muhimi hamma undan birday rozi bo'ladi. Yaxshilab kuzatgan inson bilimli inson bilan bilimsiz odamni bir qarashda ajratib oladi. Bizning vazifamiz esa kasbimiz yo'lida hormay tolmay aholi orasida kitobxonlikni keng yoyish hamda barcha uchun sevimli bo'lgan kitoblarni kitobxonlarga manzur qilish. Zero, Har qanday tashkilot qanchalik ahamiyatli bo'lsa, kutubxonalar ularning yuraklaridir, har qanday inson sohasining eng zo'r mutaxassisi bo'lsa kutubxonachi xodim ularga to'g'ri taklif va kitoblar taqdim etgan mutaxassislardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Manba: [<https://sinaps.uz/bilasizmi/6379/>]
2. O'zbekistonda kutubxonachilik ishi, 1989-y. Qosimova O. O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi, 1992-y. Oxunjonov E.O. Turkistonda O'rta asr kutubxonachilik va bibliografiya ishlari madaniyati, 1994-y. [<https://kattakurgon.takm.uz/yangiliklar/item/49-kutubxona-nurxona-o-rta-osiyoning-qadimgi-kutubxonalari>].

СУЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ ВОЕННО – ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Шарипов Абдурашид Базарбаевич

Руководитель начальной допризывной, подготовки политехникума №2,
Шараф Рашидовского района Джизакской области